



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayaviddinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**IQTISODIY O‘SISHNI RAG‘BATLANTIRISHDA MILLIY IQTISODIYOTNI
MODERNIZATSIYA QILISHNING XORIJ TAJRIBASI**

**ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ В
ЦЕЛЯХ СОДЕЙСТВИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОМУ РОСТУ**

**FOREIGN EXPERIENCE OF MODERNIZING THE NATIONAL ECONOMY IN
PROMOTING ECONOMIC GROWTH**

Mamanazarov Mansur Abduxakimovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Marketing va bitiruvchilar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i PhD., dotsent v.b.

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorijiy tajribalari tahlil qilingan. Rivojlangan davlatlarda amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar, innovatsiyalarni joriy etish, raqamlashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va investitsiyalarni rag‘batlantirishning iqtisodiy o‘shishga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘shish, milliy iqtisodiyot, modernizatsiya, xorij tajribasi, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, investitsiyalar, inson kapitali, raqobatbardoshlik.

В данной статье проанализирован зарубежный опыт модернизации национальной экономики в целях стимулирования экономического роста. Исследовано влияние структурных реформ, внедрения инноваций, цифровизации, развития человеческого капитала и стимулирования инвестиций на экономический рост в развитых странах. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по приоритетным направлениям модернизации экономики Узбекистана.

Ключевые слова: экономический рост, национальная экономика, модернизация, зарубежный опыт, инновации, цифровая экономика, инвестиции, человеческий капитал, конкурентоспособность.

This article analyzes foreign experience in modernizing the national economy to stimulate economic growth. The impact of structural reforms, innovation implementation, digitalization, human capital development, and investment promotion on economic growth in developed countries is examined. Based on the research findings, practical recommendations were developed on the priority directions for modernizing the economy of Uzbekistan.

Keywords: economic growth, national economy, modernization, foreign experience, innovations, digital economy, investments, human capital, competitiveness.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, sanoatning yangi texnologik bosqichga o‘tishi hamda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o‘shish strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlash va global bozorlarda raqobatbardoshlikni mustahkamlash iqtisodiyotning izchil modernizatsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi, innovatsion faoliyatning kengayishi, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi hamda raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga joriy etilishi milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Jahon amaliyotida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish bo‘yicha turli yondashuvlar shakllangan. Xususan, Sharqiy Osiyo davlatlari eksportga yo‘naltirilgan sanoatlashtirish modelidan samarali foydalangan bo‘lsa, Yevropa mamlakatlari innovatsion rivojlanish va yuqori texnologiyalarni qo‘llash orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishgan.

Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribasi davlatning faol sanoat siyosati, investitsiyalarni rag‘batlantirish, inson kapitalini rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy modernizatsiyaning asosiy shartlaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda xorijiy davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalarini o‘rganish, ularning iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish mexanizmlarini tahlil qilish hamda milliy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning nazariy asoslari yetarlicha shakllangan bo‘lsa-da, zamonaviy sharoitlarda raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, urbanizatsiya, innovatsion klasterlar va hududiy rivojlanish omillarining o‘zaro bog‘liqligini kompleks baholashga qaratilgan tadqiqotlar hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Shu bois mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish iqtisodiy o‘shishning yangi manbalarini aniqlash va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish masalalari iqtisodiyot fanining eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida globallashtirish, raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish jarayonlarining jadallashuvi milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun modernizatsiya siyosatini amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish masalalari ko‘plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, F.Perru, J.Monne, P.Krugman va E.Gleyzerlarning ilmiy qarashlari ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, Fransuz iqtisodchisi F.Perru iqtisodiy rivojlanishning “o‘shish qutblari” nazariyasini ishlab chiqqan. Olimning fikricha, iqtisodiy o‘shish barcha hududlarda bir xil sur‘atlarda kechmaydi, balki iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va markazlarida shakllanadigan rivojlanish qutblari orqali yuzaga keladi. Shu sababli iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, innovatsion markazlarni shakllantirish va investitsiyalarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, J.Monne davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan indikativ rejalashtirish konsepsiyasini ilgari surgan. Uning qarashlariga ko‘ra, iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari bozor mexanizmlari bilan bir qatorda davlat tomonidan strategik muvofiqlashtirilishi zarur. Shu maqsadda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari bo‘yicha uzoq muddatli rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va investitsiya siyosatini samarali tashkil etish iqtisodiy o‘shishning muhim omili hisoblanadi.

Shu o‘rinda, Amerikalik iqtisodchi P.Krugman yangi iqtisodiy geografiya nazariyasini ishlab chiqib, iqtisodiy o‘shishning asosiy manbalaridan biri sifatida hududiy aglomeratsiyalar va ishlab chiqarishning geografik konsentratsiyasini ko‘rsatadi. Olimning ta’kidlashicha, transport xarajatlarining kamayishi, infratuzilmaning rivojlanishi va iqtisodiy faollikning yirik markazlarda jamlanishi mehnat unumdorligi hamda investitsion jozibadorlikni oshiradi. Bu esa milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, E.Gleyzer zamonaviy iqtisodiy o‘shishda urbanizatsiya va inson kapitalining rolga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, shaharlar innovatsiyalar, bilimlar almashinuvi va malakali mehnat resurslarining markazi bo‘lib, iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Shu bois iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida urbanizatsiyaning

jadallashtirish, ta’lim sifatini oshirish va inson kapitaliga investitsiyalarni ko‘paytirish iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiya iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorijiy tajribalarini o‘rganish va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan. Tahliliy jarayonda tahlil va sintez, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy taqqoslash, tanqidiy yondashuv, ilmiy kuzatish umumlashtirish hamda statistik ma’lumotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Rivojlangan va yangi industriallashayotgan davlatlar tajribasi tahlili natijalari modernizatsiya jarayonlari iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qilishini ko‘rsatmoqda.

Xususan, Janubiy Koreya tajribasida sanoatni texnologik yangilash va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga katta hajmdagi investitsiyalarni yo‘naltirish natijasida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlari shakllangan.

Germaniyada esa “Industry 4.0” konsepsiyasi asosida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirishga imkon bergan.

Xitoy tajribasi davlat tomonidan sanoat siyosatini faol qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmaga yirik investitsiyalar kiritish hamda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini jadallashtirish mumkinligini tasdiqlaydi.

Singapur misolida esa inson kapitaliga investitsiyalar, qulay biznes muhiti va innovatsion ekotizimni shakllantirish iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1 — jadval

Xorijiy davlatlarda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari va ularning iqtisodiy o‘shishga ta’siri [1]

Mamlakat	Modernizatsiyaning asosiy yo‘nalishi	Amalga oshirilgan chora-tadbirlar	Erishilgan natijalar
Janubiy Koreya	Yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish	Ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga investitsiyalar, texnoparklar tashkil etish	Elektronika va avtomobilsozlikda jahon yetakchiligiga erishildi
Germaniya	Sanoatni raqamlashtirish (Industry 4.0)	Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish	Mehnat unumdorligi va mahsulot sifati oshdi
Xitoy	Sanoatlashtirish va eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish	Maxsus iqtisodiy zonalar, infratuzilma loyihalari, investitsiyalarni jalb qilish	Yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va eksport hajmining ortishi
Singapur	Inson kapitali va innovatsiyalar	Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, biznes muhitini yaxshilash	Yuqori raqobatbardoshlik va investitsion jozibadorlik
Yaponiya	Texnologik modernizatsiya va sifat menejmenti	Lean manufacturing, Kaizen tizimi, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi	Resurslardan samarali foydalanish va mahsuldorlikning oshishi


Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy omillari sifatida innovatsiyalar, raqamlashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish va investitsiyalarni faol jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasi texnologik rivojlanish hamda innovatsion faoliyatning iqtisodiy o‘shirishga ta’sirini namoyon etsa,

Germaniya tajribasi raqamli transformatsiyaning mehnat unumdorligini oshirishdagi rolini tasdiqlaydi.

Xitoy tajribasi sanoatlashtirish va eksportni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘shirishni jadallashtirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Singapur tajribasi esa inson kapitali va qulay biznes muhitining barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi ustuvor ahamiyatini yoritadi.




1 – rasm. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi asosida iqtisodiy o‘shirishni ta’minlash mexanizmi [2]

Shunday qilib, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi asosida iqtisodiy o‘shirishni rag‘batlantirishning maqsadlari, ustuvor vazifalari va kutilayotgan natijalari o‘zaro bog‘liq holda aks ettirilgan. Unda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish va aholi farovonligini ta’minlash modernizatsiya jarayonining asosiy maqsadlari sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarini texnologik yangilash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot elementlarini keng joriy etish, investitsion muhitni yaxshilash, inson kapitalini rivojlantirish hamda transport va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish kabi ustuvor vazifalar iqtisodiy o‘shirishning muhim omillari sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi aks ettirilgan iqtisodiy o‘shirishni ta’minlash raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirish hamda aholi farovonligini oshirish modernizatsiya jarayonining bosh maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda institutsional islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.



2 – rasm. Iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning maqsadi va ustuvor yo‘nalishlari [3]

Xususan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish va bozorlarni kengaytirishga xizmat qilsa, innovatsion texnologiyalarni joriy etish korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, ta'lim sifati va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali inson kapitalining mustahkamlanishi mehnat unumdorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Investitsion va moliyaviy muhitning takomillashuvi iqtisodiyotga qo'shimcha kapital oqimini jalb etishga xizmat qilsa, institutsional islohotlar iqtisodiy boshqaruvning samaradorligi va shaffofligini oshiradi.

Yuqoridagi fikr va tahlillardan kelib chiqib, quyidagi muhim xulosalar chiqarildi va muayyan natijalarga erishildi. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish muhim strategik ahamiyatga ega. Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili innovatsiyalarni joriy etish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, investitsion muhitni yaxshilash va inson kapitalini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillari ekanligini tasdiqladi. Jumladan, rivojlangan davlatlarda amalga oshirilgan modernizatsiya siyosati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shu bois, O'zbekistonda ham iqtisodiyot tarmoqlarini texnologik jihatdan yangilash, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda investitsiyalarni faol jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Perroux, F. (1955). Note sur la notion de pôle de croissance. *Économie Appliquée*, 8(1–2), 307–320.
2. Monnet, J. (1947). *Le Plan de Modernisation et d'Équipement*. Paris, France: Commissariat Général du Plan.
3. Krugman, P. (1991). *Geography and trade*. Cambridge, MA: MIT Press.
4. Glaeser, E. L. (2011). *Triumph of the city: How our greatest invention makes us richer, smarter, greener, healthier, and happier*. New York, NY: Penguin Press.
5. Мясоедов, А. И. (2023). Перспективы развития российской экономики в современных условиях. Вопросы модернизации. На пути к гражданскому обществу, (3 (51)), 82-90.
6. Мусакожоев, Ш. М. (2009). Модернизация технологических основ развития национальной экономики. Известия ВУЗов (Кыргызстан), (3), 17-23.